

Angor tumanida baliqchilik fermer xo'jaligi faoliyati bilan tanishildi



Bugun viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov Angor tumanida bo'lib, qator loyihalar, ishlab chiqarish korxonalari va ijtimoiy soha ob'ektlari faoliyati bilan tanishdi. Tumanga tashrifning birinchi manzili "Bahor" mahallasi hududidagi "Favvora nur" baliqchilik fermer xo'jaligi bo'ldi.

Baliqchilik xo'jaligida umumiy yer maydoni 31 gektar bo'lgan 6 ta sun'iy suv havzaci tashkil etilgan bo'lib, yiliga 50 tonna baliq yetishtiriladi. Loyiha doirasida 12 ta doimiy, 10 ta mavsumiy ish o'rinlari yaratilgan.

Viloyat rahbari fermer xo'jaligining baliq yetishtirish jarayonlari bilan tanishib, tadbirkor bilan loyiha istiqboli va uni kengaytirish hamda rivojlantirishdagi mavjud muammolari yuzasidan suhbatlashdi. Tadbirkorga zarur tavsiyalar berildi. Mas'ullarga tadbirkorning muammolarini hal qilish topshirildi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)